QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

IJTIMOIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i10.094

XX ASRNING 20-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA YURITGAN OILA SIYOSATI

Matyakubov Xalil Hayitbayevich
Nizomiy Ganjaviy nomidagi
O’zMPU dotsenti. T.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkistonda bolsheviklar hokimiyati o’rnatilgach 1918-1925-yillarda Turkiston Avtonom Sovet Respublikasida oila va nikoh munosabatlariga oid olib borilgan siyosat, uning huquqiy va ijtimoiy-madaniy jihatlari tahlil qilinadi. O’zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy hayotida katta o’zgarishlar ro’y bergan ushbu davrda an’anaviy jamiyat institutlarini isloh qilish, xotin-qizlarni emansipatsiya qilish, g’oyalar to’qnashuvi, qarshilik (istiqlolchilik) harakatlari jarayonida sovet qonunchiligining mahalliy aholi turmush tarziga ijobiy va salbiy ta’siri yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Oila, nikoh, ZAGS, Xalq sudlari, Shariat, Xidoya, Oila kodeksi, Oila huquqi, emansipatsiya, sekulyarizatsiya, Jenotdel, “Xotin-qizlar klublari”, “Qizil burchaklar”, Artel, Levirat.

Аннотация. В данной статье анализируется политика в сфере семейно-брачных отношений – включая её правовые и социокультурные аспекты, – проводившаяся в Туркестанской Автономной Советской Республике в период с 1918 по 1925 год, после установления в Туркестане большевистской власти. Рассматривается влияние – как положительное, так и отрицательное – советского законодательства на уклад жизни местного населения в период, отмеченный значительными социально-политическими преобразованиями в узбекском обществе, включая реформирование традиционных социальных институтов, эмансипатsiю женщин, столкновение идеологий в накануне движений сопротивления – истиклолчилик (басмачество).

Ключевые слова: Семья, брак, ЗАГС, Народные суды, Шариат, «аль-Хидая», Семейный кодекс, семейное право, эмансипация, секуляризация, Женотдел, «Женские клубы», «Красные уголки», артель, левират.

Abstract. This article analyzes the policy regarding family and marital relations – including its legal and sociocultural dimensions – implemented in the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic between 1918 and 1925, following the establishment of Bolshevik rule in the region. It examines the impact – both positive and negative – of Soviet legislation on the lifestyle of the local population during a period marked by significant sociopolitical transformations within uzbek society. These changes included the reform of traditional social institutions, the emancipation of women, and a clash of ideologies

that preceded the emergence of resistance movements, known as “Istiklolchilik” (or the “Basmachi” movement).

Keywords: Family, marriage, civil registry office (ZAGS), people’s courts, Sharia, “al-Hidayah”, Family Code, family law, emancipation, secularization, Women’s Department, “Women’s clubs,” “Red corners,” artel (cooperative), levirate.

KIRISH. Ma’lumki, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib Buxoro amirligi va Xiva xonliklari rasman mustaqil davlat sifatida mavjud bo’lsada, tashqi siyosatda Rossiya imperiyasi nazoratiga tushib qolgan vassal davlatlarga aylangan edi. Ammo ichki boshqaruvda ular ma’lum darajada mustaqillikka ega bo’lib, an’anaviy boshqaruv tartibilarini saqlab qolgan edilar. Xonliklarda aholi o‘rtasidagi nikoh va oilaviy munosabatlar shariat hamda islomiy odat normalari bilan tartibga solib kelingan. Turkiston general gubernatorligining mahalliy o’troq aholi istiqomat qiladigan hududlarda qozilik sudlari, ko’chmanchi chorvador aholi yashaydigan hududlarida biy sudlari faoliyat ko’rsatayotgan bolsa, gubernatorlikning asosan shaharlarda istiqomat qiluvchi yevropalik aholi o‘rtasida nikoh tuzish va uni bekor qilish, shuningdek, er-xotinlarning huquq va majburiyatlari Rossiya imperiyasi Qonunlar to‘plamida (Свод законов) belgilangan qoida va normalar bilan tartibga solib kelingan [1. 39-b.].

1917-yildagi oktabr davlat to‘ntarishidan so‘ng hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar jamiyatni tubdan qayta qurish va sho‘ro-bolshevizm g’oyalariga mos keladigan “yangi inson”ni tarbiyalashni o‘zlarining ustuvor vazifasi etib belgiladilar. Bu jarayonda jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish oila va nikoh institutlarini isloh qilish markaziy o‘rin egalladi. Markaziy Osiyoda, xususan, 1928-yil aprel oyida tashkil etilgan Turkiston Avtonom Sovet Respublikasida (TASR) bu siyosatni amalga oshirish o‘ziga xos murakkabliklar va qarama-qarshiliklar bilan kechdi. Mahalliy aholining bir necha asrlik an’analari, islom shariat qoidalari hamda odat huquqiga asoslangan turmush tarzi Sovet davlatining sekulyar va radikal oila siyosatiga duch keldi. 1918-1925-yillar oralig‘i Turkistonda ushbu siyosatning huquqiy va institutsional poydevori qo‘yildi. Mazkur tarixiy davr an’anaviy tuzilmalar bilan ilk jiddiy toqnashuvlar yuz bergan davr sifatida muhim tarixiy ahamiyatga ega bo’ldi.

ASOSIY QISM

Sovet hokimiyatining 1917-yil oxirida e’lon qilgan dastlabki qarorlari “Fuqarolik nikohi, bolalar to‘g‘risida va fuqarolik holati dalolatnomalarini yuritish haqida”gi hamda “Nikohni bekor qilish to‘g‘risida”gi dekretlar Rossiya hududida oilaviy munosabatlarni davlat nazoratiga oldi [2, 45-b.]. Ushbu qonunlar bilan shariat va cherkov nikohlari yuridik kuchini yo‘qotdi, fuqarolik nikohi joriy etildi hamda nikohni ajratish tartiblari soddalashtirildi. 1918-yilda qabul qilingan RSFSRning Oila, nikoh va vasiylik huquqi to‘g‘risidagi Kodeksi bu islohotlarni qonunan mustahkamladi.

Biroq Turkistonda bu qonunlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va zudlik bilan tatbiq etish imkonsiz edi. Chunki yosh sovet davlati chet el intervensiyasi, oq gavardiyachi generallar va Turkistonda boshlanib ketgan Istiqlolchilik harakati kabi uch tomonlama qarshilik frontida o’z mavjudligini saqlab qolish uchun hayot-mamot kurashiga tortilgan edi. Tarixiy-siyosiy

sharoitni juda yaxshi tushungan Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (TMIQ) va Xalq Komissarlari Soveti (XKS) mahalliy sharoitni, ya’ni aholining aksariyat qismi islom shariati va odat huquqiga tayanib yashashini e’tiborga olishga majbur bo‘ldi. Shu sababli, 1918-1922-yillarda Turkistonda shariat va qozilik sudlari fuqarolik masalalarini, shu jumladan nikoh va oila nizolarini ko‘rish huquqini ma’lum ma’noda saqlab qoldi [3, 112-b.].

Sovet hokimiyati o‘zining Turkistondagi oila siyosatida quyidagi asosiy maqsadlarni belgilab oldi:

Birinchidan, nikoh va oila munosabatlarini diniy va an’anaviy ta’sirlardan xalos etish (sekulyarizatsiya);

Ikkinchidan, xotin-qizlar huquqlarini tenglashtirish va ularni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilish (emansipatsiya);

Uchinchidan, ko‘p xotinlilik, qalin berish, qizlarni barvaqt uzatish va majburiy nikoh kabi o’rta asrchilik sarqitlarga qarshi kurashish;

To’rtinchidan, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (ЗАГС) organlari tarmog‘ini yaratish va nikohlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish.

Bolsheviklarning qat’iy temir intizomga asoslangan “Harbiy kommunizm” siyosati asta sekin natija bera boshladi. Interventlarga va oq gvardiyachilarga qarshi urush mudofaa harakteridan xujum xarakteriga o’tdi. Rossiyaning markaziy, shimoliy-g’arbiy hududlari, Qrim, Kavkazorti, Uzoq Sharq to’liq bolsheviklar nazoratiga o’tdi. Turkiston frontida istiqlolchilik harakati hali tor-mor etilmagan bo’lsada, Buxoro va Xivada xon hokimiyatining ag’darilishi, bu yerda bolsheviklar andozasidagi sho’ro hukumatlari o’rnatilishi (XXSR va BXSR) hamda ulardan tortib olingan boyliklar qizil armiyaning moddiy ta’minotini sezilarli darajada yaxshiladi.

1920-yillarning boshlaridan e’tiboran Turkiston ASSRda an’anaviy oilaviy munosabatlarni qonun yo‘li bilan taqiqlash choralari kuchaytirildi. 1921-1923-yillarda TMIQ tomonidan bir qator dekret va qarorlar qabul qilinib, amaldagi jinoyat qonunchiligiga o‘zgartirishlar kiritildi. 1921-yil iyun oyida Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo’mitasining qalin puli, ko’p xotinlik va erta nikohlarni ta’qiqlash bo’yicha qarori e’lon qilindi. 1923-yilda esa ushbu masalaga oid maxsus qonun ham qabul qilindi. Sovetlarning bu qadamlari o’zbek xotin-qizlarining oila va jamiyatdagi xolatini o’zgartirishda katta ahamiyat kasb etdi.

Qalin (sut puli) to‘lash va olish taqiqlandi va bu harakat jinoyat sifatida baholandi [4, 78-b.]. Sovet mafkurasi va qonunchiligi qalinni “ayol kishini sotib olish va uni buyumga aylantirish” deb malakaladi. Biroq sovet qonunchiligini hayotga tadbiq etish juda mashaqqatli jarayon bo’lib chiqdi. Bolsheveklarnig o’lka xalqlari uchun tamomila yot bo’lgan g’oyalarni shoshma-shosharlik bilan amaliyotga joriy qilinishi, aksariyat xollarda esa majburiy ravishda tiqishtirilishi aholining noroziligi va qattiq qarshiligiga duch keldi. Jumladan, qalin olish udumi amaliyotda yashirin ravishda, sovg‘a yoki boshqa shakllarda davom etaverdi.

Ko‘p xotinlilik hamda voyaga yetmagan qizlarni nikohlashtirish taqiqlandi. Turkistonda nikoh yoshi qizlar uchun 16 yosh, yigitlar uchun 18 yosh etib belgilandi. Majburiy nikoh, qizlarni erining roziligisiz uzatish yoki beva ayolni marhum erining akasi yoki ukasiga majburan nikohlab berish (levirat) odatiga qarshi qat’iy choralar ko‘rildi.

Shariat sudlari, qozixonalarning vakolatlari bosqichma-bosqich cheklandi. 1922-yildan boshlab shariat sudlarining oilaviy masalalarni ko‘rish huquqi qisqartirildi, 1924-yilga kelib esa bu sudlar butunlay tugatilish poydevori qo‘yildi va barcha oilaviy nizolar xalq sudlari (sho‘ro sudlari) tasarrufiga o‘tkazildi [5, 64-b.].

Sovet oila siyosatini amalga oshirishda Turkiston Kompartiyasi MIK huzuridagi Xotin-qizlar bo‘limlari (Женотдел) asosiy tashkiliy qurolga aylandi. Jenotdel faollari joylarda ayollar orasida targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib bordilar, ularga huquqiy yordam ko‘rsatdilar va yangi hayot tarzini targ‘ib qildilar.

1920-yillarning o‘rtalarida Turkistonda targ’ibot-tashviqot muassasalari bo’lmish “Xotin-qizlar klublari”, “Qizil burchaklar” va ishlab chiqarish artellari tashkil etila boshlandi. Bu maskanlarda ayollarga savodxonlik, gigiyena, bolani parvarish qilish qoidalari o‘rgatildi hamda sho‘ro qonunlariga ko‘ra ularning qanday huquqlarga ega ekanligi tushuntirildi.

Biroq, bu harakatlar ko‘p hollarda mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchradi. Mahalliy erkaklar va diniy ulamolar Jenotdel faoliyatini oila mustahkamligiga va milliy-diniy qadriyatlarga tahdid sifatida qabul qildilar. Oila ishlariga davlatning keskin aralashuvi oilaviy va ijtimoiy nizolarning ortishiga, ba’zi hollarda esa sho‘ro faoli bo‘lgan ayollarga nisbatan fojiali tajovuzlarga olib keldi.

1924-yilda Markaziy Osiyoda o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish natijasida Turkiston ASSR tugatilib, O‘zbekiston SSR va boshqa milliy respublikalar tashkil etildi. Bu davrga kelib Sovet hokimiyati oila munosabatlarida an’anaviy institutlarni to‘liq siqib chiqarish bosqichiga o‘tdi. 1925-yilga kelib O‘zbekiston SSRda ZAGS organlari tarmog‘i kengaytirildi va fuqarolik nikohi yagona qonuniy nikoh turi deb e’lon qilindi.

Lekin 1918-1925-yillardagi oila siyosatining natijalari bir xil bo‘lmadi:

Nikohlanayotganlarning nikoh yoshi ancha o’sib, xotin-qizlar sog’lig’iga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan erta nikohlar soni birmuncha kamaydi. Opa-singillarning o’zaro quda bolishi (sarorat) va aka-ukalarning o’zaro quda bo’lishi(levirat) kabi shakllari kamaya boshladi. Ayollarga mulkiy huquqlarning berilishini, ajrashish va aliment talab qilish huquqining qonuniylashtirilishini va qalin berish holatlarining nisbatan kamayganligini shuningdek, ayollar ijtimoiy va mehnat faolligining o’sishini ijobiy o’zgarishlar sifatida baholashimiz tarixiy haqiqatdir.

Sho‘ro hukumatining mahalliy urf-odatlarga birdaniga va ma’muriy tazyiq o‘tkazish yo‘li bilan aralashishi oilaviy munosabatlarda tanglikni keltirib chiqardi. Ko‘plab oilalarda “ikki xil hayot” – an’anaviy ZAGS va shariat nikohi parallel ravishda yashashda davom etdi. Huquqiy islohotlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy tayyorgarligisiz amalga oshirilgani sababli ko‘pincha yuzaki xarakterga ega bo‘ldi.

Shuni alohida ta’kidlash joiski, ma’muriy-huquqiy chora-tadbirlar va targ’ibot-tashviqot ishlariga qaramasdan o’zbek oilalariga xos bo’lgan an’anaviylik XX-asrning 20-yillarida va undan keyingi o’n yilliklarda ham barqaror ravishda saqlanib qoldi. Chunki bu oilaviy qadriyatlar ming yillik tarixiy ildizlariga ega edi. O’sha davr o’zbek oilasi, o’zbek mahallasidagi hayotiy manzara rasmiy xujjatlar yoki ilmiy-statistik ma’lumotlardagidan ancha farq qiladi. Taniqli davlat arboblari, shoir va yozuvchilarning xotira va esdaliklari, tarixiy roman va qissalar shu davrning o’ziga xos noyob birlamchi manbasi hisoblanadi.

Birgina misol, Muso Toshmuhammad o’g’li Oybekning “Bolalik xotiralarim” yoki adibning turmush o’rtog’i Zarifa Saidnosirovaning “Oybegim menung” nomli xotira kitoblarida oddiy o’zbek oilasining mashaqqatli hayoti va ichki kechinmalari, oilada bobo-buvi va ota-onaning o’rni, aka-uka, qarindosh-urug’chilik, qo’shnichilik munosabatlari hayotiy lavhalarda yaqqol aks ettiriladi.

XULOSA. Turkistonda sovet hokimiyati o’rnatilgach o’lkada oila va nikoh munosabatlarini tartibga solish madaniy shaklga o’tdi, undan oldingi davrda oila-nikoh munosabatlari ayolning haq-huquqlari paymol qilingan qandaydir oldi-sotdi munosabatlariga o’xshagan tartibsiz shaklda edi deb xulosa chiqarish tarixiy jihatdan asossiz. Chunki, musulmon huquqining eng mukammal to’plami bo’lmish “Xidoya” asarida, yoki shariat huquqida “nikoh bu – voyaga yetgan erkak va voyaga yetgan ayol o‘rtasidagi shartnoma bo‘lib, u tomonlar o‘rtasida o‘zaro huquq va majburiyatlarni belgilaydi hamda shariat qonunlariga muvofiq, ular o‘rtasidagi oilaviy munosabatlarni qonuniylashtiradi”, - degan tamoyillar ijtimoiy adolatning bosh mezoni safatida qaralgan.

1918-1925-yillarda Sovet hokimiyatining Turkistondagi oila siyosati transformatsion xarakterga ega bo‘lib, u an’anaviy patriarxal va shariatga asoslangan oila modelini sovetlashtirilgan, sekulyar modelga almashtirishni maqsad qilgan edi. Bu davrda davlat oilaviy munosabatlarni qat’iy huquqiy va ideologik nazoratga olish uchun zarur qonunchilik va institutsional bazani yaratdi. Qalinni taqiqlash, nikoh yoshini belgilash va ayollarga teng huquqlar berish kabi islohotlar progressiv ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularni joriy etish usullari mahalliy aholining madaniy va diniy xususiyatlarini yetarlicha e’tiborga olmadi. Natijada ushbu siyosat jamiyatda chuqur ijtimoiy-madaniy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqardi va bu jarayonlar keyingi davrlardagi “Hujum” harakati kabi yanada keskin kompaniyalarga zamin hozirladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ишанова Ш.А. Правовое регулирование семейных отношений коренного населения дороволюционного Узбекистана. Общественные науки в Узбекистане (ОНУ). Вып. 12. 1991. с. 39-43.

2. Сборник декретов и постановлений Рабоче-Крестьянского Правительства по гражданскому праву (1917-1918 гг.). -Москва: Юридическое издательство НКЮ РСФСР, 1919. -128 с.

3. Аминова Р.Ҳ. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласининг ҳал этилиши тарихидан (1917-1927 й.й.). -Тошкент: “Фан” 1975. -248 б.

4. Хасанов М.К. История советского права в Туркестане (1917-1924 гг.). -Ташкент: “Узбекистан”, 1981. -192 с.

5. Сулаймонова Х.С. Ўзбекистонда Совет давлати ва ҳуқуқининг пайдо бўлиши ва ривожланиши. 1-жилд. -Тошкент: “Фан”, 1959. -310 б.

6. Алимова Д.А. Ўзбекистонда аёллар масаласи: тарих ва замонавийлик (1917-1990-йиллар). -Тошкент: “Фан”, 1991. -184 б.